

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

**VII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

OKTYABR, 2025-YIL



O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

**VII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, oktyabr

TOSHKENT-2025

ISBN 978-9910-8337-0-0

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI. VII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 40 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 2-oktyabr

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur nashrda "O'zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta'lim istiqbollari" nomli VII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to'plami jamlangan. Unda O'zbekistonning turli oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo'nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta'lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To'plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta'lim, O'zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta'lim.

ISBN 978-9910-8337-0-0

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TARIX FANLARI

Qirg'izov Baxtiyor

BURHONIDDIN MARG'INONIY HAZRATLARI NOMLARI BILAN BOG'LIQ FARG'ONA
VILOYATIDAGI YODGORLIK VA ZIYORATGOHLAR 4-9

IQTISODIYOT FANLARI

Obidova Intizor

SANOAT KORXONALARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH BO'YICHA DAVLAT
SIYOSATI 10-19

FILOLOGIYA FANLARI

Xoldorova Xulkaroy

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA DINIY MATNLAR USLUBINING EKSTRALINGVITIK
XUSUSIYATLARI 20-23

YURIDIK FANLARI

Axmedov Axadulla

MADANIY MEROS SOHASIDAGI MUNOSABATLARNING KONSTITUTSIYAVIY – HUQUQIY
ASOSLARI TAHLILI 24-30

Nurmamatova Noila

KONSTITUTSIYAVIY SUDLARDA VAKILLIK INSTITUTINING O'RNI VA XORIJIY DAVLATLAR
TAJRIBASI 31-33

Бекимбетова Тумарис

ГАРМОНИЗАЦИЯ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА УЗБЕКИСТАНА С ПРАВОМ ЕВРОПЕЙСКОГО
СОЮЗА: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ 34-36

PEDAGOGIKA FANLARI

Mirzayeva Umidaxon

FIZIKA TA'LIMIDA PISA USLUBIDAGI TOPSHIRIQLAR ORQALI REAL HAYOTGA
YO'NALTIRILGAN BILIMLAR BERISH 37-39

YURIDIK FANLARI

MADANIY MEROS SOHASIDAGI MUNOSABATLARNING KONSTITUTSIYAVIY – HUQUQIY ASOSLARI TAHLILI

Axmedov Axadulla Asadulla o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi yuridik bo'lim boshlig'i

Tel: +998901364346

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Mazkur maqolada mamlakatimizning asosiy qonuni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining madaniy merosimizni asrab-avaylashdagi roli va ahamiyati xususida so'z boradi. Unda madaniy meros sohasining qonunchilikda tutgan o'rnini, sohaning dolzarb masalalari, sohani boshqarishga vakolatli bo'lgan tashkilotlarning shakllanish bosqichlari, shuningdek, madaniy meros munosabatlarini tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida ma'lumot beriladi. Maqolada O'zbekiston va ayrim xorijiy davlatlar Konstitutsiyalarida madaniyat, fan, ta'lim, yodgorliklar yoki milliy meros tushunchalarining aks etishi hamda madaniy meros sohasiga doir me'yorlar ham qiyosiy tahlil qilingan. Shuningdek, bugungi kunda qonunchilikda mavjud muammo va kamchiliklarni tahlil qilgan holda "Madaniy meros to'g'risidagi kodeks"ni qabul qilish zarurligi yuzasidan maqola muallifining takliflari o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, kodeks, qonun, qaror, UNESCO, ICOMOS, ICCROM, Madaniy meros, Madaniy meros agentligi, bosh boshqarma, departament, agentlik, muzeylar, arxeologiya, madaniy boyliklar.

ANALYSIS OF THE CONSTITUTIONAL AND LEGAL FOUNDATIONS OF RELATIONS IN THE FIELD OF CULTURAL HERITAGE

Ahmedov Axadulla Asadulla ogli

Head of Legal Department, Cultural Heritage Agency of the Republic of Uzbekistan

Annotation. This article examines the function and significance of the Republic of Uzbekistan's Constitution, the country's foundational law, in the protection of cultural assets. It provides information on the legal status of the cultural heritage sector, its pressing issues, the formation stages of organizations authorized to manage this field, and the main regulatory legal documents governing cultural heritage relations. The article also presents a comparative analysis of how the concepts of culture, science, education, monuments, and national heritage are reflected in the Constitutions of Uzbekistan and certain foreign countries, as well as the legal norms related to the cultural heritage sphere. Moreover, the author of the article outlines current legislative problems and shortcomings, offering proposals regarding the necessity of adopting a "Cultural Heritage Code."

Key words: Constitution, Code, Law, Resolution, UNESCO, ICOMOS, ICCROM, Cultural Heritage, Cultural Heritage Agency of the Republic of Uzbekistan, Main Directorate, Department, Agency, Museums, Archaeology, Cultural Assets.

Hozirgi kunda Yangi O'zbekiston barpo etilishi – siyosat, iqtisodiyot, madaniyat, ma'naviyat va boshqa barcha jabhalarda muvaffaqiyatli olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan madaniy merosimizni saqlash, tadqiq etish, keng targ'ib qilish va keyingi avlodga yetkazishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shunga ko'ra, Asosiy Qonunda davlat va fuqarolarning madaniy meros sohasiga oid munosabatlarini tartibga soluvchi asosiy prinsiplari mustahkamlanishi, fuqarolarning madaniy merosga doir burchlari belgilanishi bejizga emas. Bu madaniy meros sohasining bugungi kunda hayotimizda qanchalik dolzarb soha ekanligidan dalolat beridi.

Konstitutsiyaviy normalar demokratik-huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyatini tashkil etishning asosiy prinsiplarini belgilashda, fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini kafolatlashda, madaniy meros sohasiga oid huquq-tartibotni mustahkamlashda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Unda ijtimoiy hayotimizdagi barcha munosabatlarning asosiy qoidalari, jumladan, madaniy merosimizni asrab avaylashga, uni muhofaza qilishga doir talablar, ulardan oqilona foydalanish bo'yicha eng muhim va asosiy qoidalar belgilab berilgan.

Ushbu sohaning dolzarbligidan kelib chiqqan holda bugungi kunda uning huquqiy asoslari huquqshunos olimlarimiz tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, yuridik fanlar doktori F.A.Muhitdinovning "Zamonaviy O'zbekistonning tarixiy-ma'naviy, madaniy va tabiiy merosini konstitutsiyaviy-huquqiy himoya qilish" mavzusidagi maqolasida[1] O'zbekistonning o'z hududida turli davrlar, uslublar va yo'nalishlarga oid noyob tarixiy va madaniy yodgorliklar mavjud bo'lgan mamlakat ekanligi, ushbu yodgorliklarni asrab-avaylagan holda kelajak avlodlarga yetkazish har bir fuqaroning burchi ekanligi to'g'risida so'z yuritilgan.

Shuningdek, G.P.Rasulovning "O'zbekistonda madaniy merosni asrashning huquqiy va tashkiliy asoslari" nomli maqolasida ushbu sohada davlat tashkiloti sifatida shakllangan tashkilotlarning va ularning vakolatlari hamda ularning konstitutsiyaga muvofiq tashkil etilganligi xususida ma'lumot berib o'tilgan[2].

Bundan tashqari, ushbu soha N.V.Medvedeva[3], M.E.Kuleshova[4], Y.M.Berdiugina[5] va O.V.Galkova[6] kabi xorijlik olimlar va soha mutaxassislari tomonidan ham o'rganilgan.

Bu boradagi qonunchilikni tahlil qiladigan bolsak, Konstitutsiyaning 10-bobi inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlariga bag'ishlangan bo'lib, unda davlatning fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan jumladan, madaniy meros bilan bog'liq huquqlarini kafolatlashi belgilanganligini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, Asosiy Qomusimizning beshinchi bo'limida davlat hokimiyatini tashkil etishning asosiy qoidalari belgilangan bo'lib, ushbu normalar madaniy meros sohasidagi qonunchilikning shakllanishi va shu sohadagi davlat organlarining tashkil etilishida muhim huquqiy negiz bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu normaning amaliy ifodasi sifatida Madaniy meros agentligi dastlab "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi faoliyatini tashkil etish hamda sohani innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5150-son qarori asosida tashkil etilgan.

Shundan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-14-son Farmoni asosida alohida agentlik sifatida qayta tashkil etildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi "Ma'muriy islohotlar doirasida madaniy meros sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-177-son qarori asosida faoliyat yo'nalishlari belgilab berildi.

Ushbu qaror qabul qilingunga qadar madaniy meros sohasini boshqarish Madaniyat vazirligi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi hamda Turizm va madaniy meros vazirligi kabi turli tashkilotlar huzurida tashkil etilgan Bosh boshqarma, Departament va Agentlik shaklida takshil etilgan tashkilotlar tomonidan amalga oshirib kelingan.

Madaniy meros agentligi O'zbekiston Respublikasida moddiy madaniy meros, muzeylar, arxeologiya, madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi sohasida maxsus vakolatli davlat boshqaruv organi hisoblanadi.

Agentlik mazkur farmon va qarorlarni hayotga tatbiq etish borasida so'nggi yillarda qator ishlarni amalga oshirdi. Bu madaniy meros obyektlarni asrashga qaratilgan restavratsiya va konservatsiya ishlari, muzeylar faoliyatini takomillashtirish va xizmat qilish saviyasini oshirish yuzasidan olib borilgan tadbirlarda aks etdi.

Shu o'rinda qayd etib o'tish kerakki, mazkur konstitutsiyaviy normalar–birinchidan, ularda madaniy meros sohasidagi munosabatlar to'g'ridan-to'g'ri tartibga solinmagani, ikkinchidan, ushbu normalar madaniy meros qonunchiligining shakllanishi va rivojlanishidagi asosiy qoidalarni belgilab, berilgani bilan ahamiyatlidir.

Mavzudan kelib chiqib, xorijiy davlatlar tajribasiga nazar solinsa, ularning Konstitutsiyalarida madaniy merosni muhofaza qilish va undan foydalanishga doir normalar turlicha shaklda aks ettirilgan. Ba'zi davlatlar Konstitutsiyalari bu normalarni aniq va bevosita belgilasa, boshqalarida madaniyat, fan, ta'lim, yodgorliklar yoki milliy meros kabi tushunchalar orqali bolvosita qayd etiladi.

Masalan, Italiya, Ispaniya va Rossiya Federatsiyasi kabi davlatlar madaniy merosni muhofaza qilish undan foydalanish me'yorlarini Konstitutsiyada to'g'ridan-to'g'ri mustahkamlagan. Xususan, Italiya Konstitutsiyasining 9-moddasida "Respublika fan va san'atni rivojlantiradi, tabiiy muhit va millatning tarixi, lashkariy, madaniy merosini muhofaza qiladi" deb belgilangan bo'lsa (1947-y.), Ispaniya Konstitutsiyasining 46-moddasida "Hukumat madaniy va tarixiy merosni muhofaza qilish, tiklash va boyitish uchun zarur choralar ko'rish" nazarda tutilgan (1978-y.). Shuningdek, Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining 44-modasiga ko'ra: "Har bir inson madaniyatda ishtirok etish huquqiga ega. Davlat madaniy va tarixiy merosni muhofaza qiladi, an'anaviy madaniy qadriyatlarni saqlash kafolatlanadi (1993-y.)."

Fransiya, Germaniya va Yaponiya davlatlari esa milliy madaniy merosni qonunlar va sud amaliyoti orqali himoya qiladi. Jumladan, Fransiya Respublikasida "**Code du patrimoine**" ("Meros kodeksi", 1804-y.) orqali madaniy meros maxsus tartibda himoya qilinadi. Germaniyada madaniy meros "O'ta muhim jamoat manfaati" deb qaraladi va federal hamda yer (land) darajasida himoya qilinadi. Yaponiyada "Cultural Properties Protection Law" ("Material madaniy boyliklar", 1950-y.) qabul qilingan bo'lib, madaniy merosni muhofaza qilishda kodeks va sud amaliyotiga tayaniladi.

O'zbekiston Respublikasi Asosiy Qonunida esa ijtimoiy-siyosiy tushdagi normalar bilan bir qatorda madaniy merosimizni muhofaza qilish va ulardan foydalanishni to'g'ridan-to'g'ri tartibga soluvchi maxsus me'yorlar mavjud. Konstitutsiyasining 61-moddasiga muvofiq, fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini asrab-avaylashi shart. Tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy meros davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

Ushbu normaning ahamiyati quyidagilarda ko'rinadi:

birinchidan, fuqarolarning madaniy merosni asrab-avaylashga doir burchi Konstitutsiya darajasida mustahkamlangan:

ikkinchidan, madaniy merosni asrab-avaylash tushunchasining yuridik mazmunidan kelib chiqib, Konstitutsiyaning ushbu normasi madaniy merosdan oqilona foydalanish majburiyatini ham nazarda tutadi.

Yuqorida nomlari zikr etilgan rivojlangan davlatlar qonunchiligida madaniy merosni asrashga qaratilgan normalarning mavjud bo'lishining birlamchi sababi ularda davlatchilik tarixining tadrijiy taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lsa, boshqa sababi ularning xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lishi asnosida yuzaga kelgan.

Ma'lumki, bugun dunyoda UNESCO (1945), ICOMOS (1965), ICCROM (1959) kabi xalqaro tashkilotlar mavjud va jahondagi umuminsoniy madaniy boyliklarni muhofaza qilish, uni rivojlanishini ta'minlash ushbu tashkilotlarning asosiy vazifalaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi 1993-yilda UNESCOga, 2024-yil 30-avgustda ICCROMga a'zo bo'lgan. Xususan, "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti huzuridagi "Xalqaro Ipak yo'li" tadqiqot instituti direktori M.Yusupova hamda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San'atshunoslik institutining yetakchi ilmiy xodimi N. Gilmanova ICOMOSning a'zoligiga qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasi mazkur xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lishdan avvalroq, 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan eski tahrirdagi Konstitutsiyasining 49-moddasiga "Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar. Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidir." kabi norma kiritilgan edi.

Keyinchalik ushbu xalqaro tashkilotlarining konvensiyalaridagi talablar va asosiy qonunda belgilangan normalar qonunchilikda o'z aksina topa boshladi. O'zbekiston Respublikasining "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi (30.08.2001-y.), "Muzeylar to'g'risida"gi (12.09.2008-y.), "Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to'g'risida"gi (29.08.1998-y.) va "Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi (13.10.2009-y.) Qonunlar shular jumlasidandir.

Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan 30.03.2019-yildagi "Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishga oid ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 265-son, 18.10.2019-yildagi "Moddiy madaniy meros obyektlaridan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 881-son, 06.03.2014-yildagi "Moddiy madaniy meros obyektlarini va ularga tutash hududlarni ularni obodonlashtirish va zarur holatda saqlash bo'yicha investitsiya majburiyatlari olgan holda ijaraga berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 53-son, 29.07.2002-yildagi "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 269-son, 04.10.2019-yildagi "Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 846-son, 31.10.2008-yildagi "Muzeylar faoliyatiga taalluqli me'yoriy hujjatlar to'g'risida" 237-son, "O'zbekiston Respublikasining "Muzeylar to'g'risida"gi Qonunini ro'yobga chiqarish uchun zarur bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqida"gi 68-son va 23.03.1999-yildagi "O'zbekiston Respublikasida madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi masalalarini tartibga solish to'g'risida"gi 131-son qarorlar amaliyotga to'liq tatbiq etilib, ijrosi ta'minlanmoqda.

2023-yilda yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyada xalqaro tashkilotlarning talablariga mos keluvchi hamda boshqa davlatlarning qonunlarida uchramaydigan mutlaqo yangi normalar kiritildi. Xususan, Konstitutsiyaning 78-moddasiga ko'ra, Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qilishi belgilangan bo'lsa, 127-moddasiga, asosan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi hamda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni fuqarolarning manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy o'ziga xos xususiyatlaridan, shuningdek milliy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda, qonunga muvofiq mustaqil ravishda hal etishga haqli ekaniligi belgilab qo'yildi.

Mazkur qiyosiy tahlil, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan asosiy madaniy meros sohasiga oid huquqiy normalar eng ilg'or xorijiy davlatlar tajribasiga mos bo'lib, mamlakatimizda madaniy merosimizni asrab avaylashga, uni muhofaza qilish va kelgusi avlodlarga yetkashga xizmat qilmoqda.

Shuning barobarida Milliy Qonunchilik hujjatlari xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlarning qonunchiligi doirasida tahlil qilinganda bugungi kunda amalda bo'lgan qonunlarimizda madaniy meros sohasining asosiy prinsiplari mavjud emasligi, ushbu sohada davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilanmagan ma'lum bo'ldi. Jumladan, bugungi kunda amaliyotda moddiy madaniy meros obyektlari bilan bog'liq faoliyat Madaniy meros agentligi tomonidan tartibga solinsa, nomoddiy madaniy meros bilan bog'liq faoliyat Madaniyat vazirligi tomonidan tartibga solinmoqa.

Biroq Agentlik faoliyati va uning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, nomoddiy madaniy meros bilan bog'liq faoliyatni ham ushbu tashkilot faoliyatining predmeti sifatida ko'rish mumkin.

Bundan tashqari qonunchiligimizda amalda bo'lgan 1972-yil 16-noyabrda qabul qilingan "Umumjahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to'g'risida"gi Parij Konvensiyasi talablaridan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi Qonundagi mavzuga aloqador quyidagi atamalarga ayrim tuzatishlar kiritish takliflarini keltirib o'tishni maqsadga muvofiq deb topdik:

- ansambllar tushunchasiga berilgan ta'rif mazmuniga muzey qo'riqxonalarini ham kiritish;
- diqqatga sazovor joylar izohida "marosimlar bajo etiladigan joylar" jumlasini "o'tkaziladigan joy" jumlasini almashtirish;
- yodgorliklar tushunchasiga berilgan ta'rifda "kvartiralar" so'zini "xonadonlar" so'zi bilan almashtirish.

Xulosa qilib aytilsa, hozirda, yurtimizda o'zbek xalqining boy madaniy merosiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilayotgan bir pallada, Asosiy Qonun bilan birga madaniy meros sohasiga oid milliy qoninchiligimizdagi mavjud normalarni tizimlashtirish, ushbu sohadagi siyosatning ustuvor yo'nalishlarini va prinsiplarini belgilash hamda sohaga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlarni muntazam takomillashtirib borish zamon talabidir. Shunga ko'ra mazkur sohani to'g'ridan-to'g'ri tartibga soluvchi, shuningdek, madaniy merosimizni asrab-avaylash,

uni muhofazada qilishning yagona poydevori bo'lib xizmat qiladigan "Madaniy meros to'g'risidagi kodeks"ni qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar/Literatya/References:

1. Muhitdinova F. "Constitutionngo - legal protection of the historical-spiritual, cultural and natural heritage of modern Uzbekistan" // Journal of social sciences and humanities research fundamentals. – Vol. 3, Issue 5. – May-2023. – P. 12-16.
2. Rasulov G. "Legal and organizational foundations for the protection of cultural heritage in Uzbekistan" // Web of Humanities: Journal of Social Science and Humanitarian Research. – Vol. 3, Issue 4. – April-2025. – P. 197-200.
3. Медведева Н., Стоналова А. Понятие "Культурное наследие" и основные теоретические подходы к его изучению. – 2016 г. (cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-kulturnoe-nasledie-i-osnovnye-teoreticheskie-podhody-k-ego-izucheniyu)
4. Кулешова М. Нормативно-правовые аспекты сохранения культурных ландшафтов России. – 2018 г. (cyberleninka.ru/article/n/normativno-pravovye-aspekty-sohraneniya-kulturnyh-landshaftov-rossii.)
5. Бердюгина Ю. Безопасность объектов культурного наследия как особого вида объектов капитального строительства: правовой аспект. – 2017 г. (cyberleninka.ru/article/n/bezopasnost-obektov-kulturnogo-naslediya-kak-osobogo-vida-obektov-kapitalnogo-stroitelstva-pravovoy-aspekt.)
6. Галкова О. Теоретические основы культурного наследия. – 2011г. (<https://cyberleninka.ru/article/n/teoreticheskie-osnovy-kulturnogo-naslediya>)
7. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023y. <https://lex.uz/docs/6445145>
8. Italiya Konstitutsiyasi. 1947 y. <https://www.gazzettaufficiale.it/dettaglio/codici/constituzione>
9. Ispaniya Konstitutsiyasi. 1978 y. <https://www.boe.es/error/errorParametros.php>
10. Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasi. 1993-y. https://www.prilib.ru/item/1395513?utm_source=chatgpt.com
11. Fransiya "Meros kodeksi" (Code du patrimoine). 1804-y. https://www.legifrance.gouv.fr/loda/id/LEGITEXT000006070721/1960-05-18?utm_source=chatgpt.com
12. Yaponiya "Material madaniy boyliklar" Qonuni (Cultural Properties Protection Law). 1950-y. https://www.wipo.int/wipolex/en/text/479927?utm_source=chatgpt.com
13. O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagi "Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to'g'risida"gi O'RQ-678-I-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-24377>
14. O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 30-avgustdagi "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi, O'RQ-269-II-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/25461>
15. O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 12-sentabrdagi "Muzeylar to'g'risida"gi O'RQ-177-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-1391728>
16. O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 13-oktabrdagi "Arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi O'RQ-229-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-1526440>
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi "Ma'muriy islohotlar doirasida madaniy meros sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-177-son qarori. <https://lex.uz/docs/6481847>

18. O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 29-iyuldagi "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 269-son qarori. <https://lex.uz/docs/285207>
19. O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 6-mardagi "Moddiy madaniy meros obyektlarini va ularga tutash hududlarni ularni obodonlashtirish va zarur holatda saqlash bo'yicha investitsiya majburiyatlari olgan holda ijaraga berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 53-son qarori. <https://lex.uz/docs/2352891>
20. O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-martdagi "Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishga oid ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 265-son qarori. <http://lex.uz/docs/4262171>
21. O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktabrdagi "Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 846-son qarori. <http://lex.uz/docs/4543266>
22. O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-oktabrdagi "Moddiy madaniy meros obyektlaridan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 881-son qarori. <https://lex.uz/docs/4559553>
23. Ўзбекистон Маданий мерос агентлиги электрон сайти. <https://gov.uz/uz/madaniymeros>

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

VII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2025-yil, oktyabr

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM
ISTIQBOLLARI. VII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 40 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: Scienceproblems Team

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 2-oktyabr

ISBN 978-9910-8337-0-0

Barcha huqular himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.